ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TIL KONTAKTI VA SO‘Z O‘ZLASHUVI MUAMMOLARI

Qo‘ziyev Umidjon Yandashaliyevich,
Namangan davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

Qo‘chqoraliyeva Fotima Zokirjon qizi,
Namangan davlat universiteti
Amaliy filologiya yo‘nalishi talabasi

Sotsiolingvistika o‘rganadigan asosiy masalalardan biri «til kontakti» tushunchasidir. Kontakt lotincha «contactiss» so‘zidan olingan bo‘lib, «bevosita aloqa», «bevosita bog‘lanish» ma’nolarini bildiradi.

Ikki va undan ortiq tillarning fonetik, leksik-semantik hamda sintaktik tuzilishiga ta’sir qiluvchi tillarning o‘zaro aloqalati va munosabatlari til kontaktlari hisoblanadi.[1] Shuningdek, til kontakti tilning amali bilan bog‘liq tushunchadir. Til kontaktining tilning amali bilan bog‘liqligi shundaki, u nutqiy jarayonda sodir bo‘ladi. Ma’lumki, nutqiy jarayonning asosini muloqot tashkil qiladi. Muloqot ikki shaxs o‘rtasidagi fikr almashinuvdir. Muloqot jarayonining ishtirokchilaridan birini so‘zlovchi, ikkinchisini tinglovchi deyiladi. So‘zlovchi fan tili bilan adresant, tinglovchi esa adresat deyiladi. Fikr so‘zlovchi – adresant tomonidan til ashyolari vositasida uzatiladi. U (fikr) tinglovchi – adresat tomonidan qabul qilinadi. Ana shu jarayonni muloqot deyiladi. Bu jarayon individual-psixik xarakterda bo‘ladi. Tilning psixik hodisa xarakteri ham nutq, nutq faoliyati orqali belgilanadi. So‘zlovchi-adresant va tinglovchi-adresat bir til jamoasi vakillari bo‘lsa, muloqotda til kontakti bo‘lmaydi. Muloqotning til kontaktiga asoslanishi uchun so‘zlovchi-adresant va tinglovchi-adresat har xil til jamoalariga qarashli bo‘lishi shart. Bundan tashqari, tinglovchi-adresant tinglovchi – adresat mansub bo‘lgan, tinglovchi-adresat so‘zlovchi-adresant mansub bo‘lgan jamoaning tilini bilishi, albatta, zarur. Aks holda, til kontakti vujudga kelmaydi.

Til kontakti masalari bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, M. Zokirovning «O‘zbek va tojik lisoniy aloqalari», «Bilingvizm hodisasining umumiy tavsifi xususida», V.Vositovning «Study of Language Contacts» (til kontaktining sharoitlari, bilingvizm, interferensiya), N.Isakovaning «Issues of interference and foreign borrowings in the Uzbek language» (leksik interferensiya va so‘zlarning kirib kelishi), M. Xakimovaning «Linguo culturological features of words that entered the Uzbek language from Indo-European languages» (Indo-Yevropa tillaridan o‘zbek tiliga kirgan so‘zlarning lingvokulturoloji xususiyatlari) nomli qator ilmiy izlanishlari mavjud.

Tillarni qiyosan o‘rganish bo‘yicha tajribalar eng qadim zamonlarda boshlangan bo‘lishiga qaramay, jahon tilshunosligida til kontaktlari muammolari bilan tilshunoslar XIX asr oxiri – XX asr boshidan shug‘ullana boshlaganlar. Xususan, G.Shuxardt va I.A.Boduen de Kurtene bir-biridan mustaqil ravishda «tillarning aralashuvi» degan tushunchani tilshunoslikka olib kirganlar.[2] G.Shuxardtning fikricha, «til aralashuvining imkoniyatlari hech qanday cheklanishlarni bilmaydi; u tillar orasida ham maksimal, ham minimal farqlanishga olib kelishi mumkin»[3].

Hozirgi zamon jahon tilshunosligida tillarning aralashuvi termini o‘rnida *til kontaktlari* birikmasi keng qo‘llanib, ushbu termin tilshunoslikka A.Martine tomonidan birinchi marta kiritildi, U.Vaynrayx tomonidan esa ommalashtirildi.[4]

L.V.Shcherba til kontaktlariga aloqador nazariy ishlarida tillarni qiyosiy aspektda o‘rganishning ahamiyati nihoyatda katta ekanligi, bilingvizmning umumiy-nazariy jihatlari, mohiyati, ko‘rinishlari, turli hududlardagi o‘ziga xos xususiyatlari, bilingvizmning individ uchun ahamiyati yuqori bo‘lishi haqidagi qarashlarini bayon qiladi.[5]

Bu ishlarda rus va fransuz tillari tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilinadi. Turkologiya, jumladan, o‘zbek

[1] Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С. 237.
[2] Шухарт Г. Избранные статьи по языкознанию. – М.,1950. – С. 175. Бодуен де Куртене И.А. Избранные труди по общему языкознанию. 1. – М., 1963. – С. 362-372.
[3] Шухардт Г. Избранные статьи по языкознанию. – М., 1950. – С. 177.
[4] Новое в лингвитстике. Вып VI, Языковые контакты. – М., 1972. – С. 5.
[5] Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л., 1968. – С. 506-522.

tilshunosligida tillarni qiyoslab tadqiq qilish ishlari XI asrda Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» hamda XV asrda Alisher Navoiy tomonidan yozilgan «Muhokamatul lug‘atayn» asarlaridan boshlangan. Mahmud Koshg‘ariy bir oilaga mansub turkiy tillarni qiyoslab, ularning umumiy va farqli jihatlarini ko‘rsatib bergan bo‘lsa, Alisher Navoiy turli til oilalariga, turli til sistemalariga mansub bo‘lgan turkiy va fors tillarini chog‘ishtirib o‘rgangan. A.Nurmonov o‘z qarashlarida Alisher Navoiyni chog‘ishtirma (kontrastiv) tilshunoslikning otasi, Mahmud Koshg‘ariyni esa qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi deb e‘tirof etadi. Turkologiyada o‘zbek va tojik tillarining o‘zaro aloqalari va ta’siri masalalariga M.Stavrulli, E.D.Polivanov, V.V.Reshetov, A.K.Borovkov va bir qator tilshunoslar umumiy tarzda qisqacha munosabat bildirganlar.

Turli etnik jamoa tillarining kommunikatsiya jarayonidagi navbatma-navbat amali til kontaktiga shart-sharoit yaratar ekan, buning oqibatida etnik jamoa tillarida har xil sifat o‘zgarishlari vujudga keladi. Etnik jamoa tillarida yuz beruvchi bunday sifat o‘zgarishlari sotsiolingvistika o‘rganadigan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Lisoniy kontaktlashuv natijasida munosabatdosh tillar o‘zaro uzoqlashishi yoki yaqinlashishi mumkin. Kontaktdosh tillararo uzoqlashish «divergensiya», yaqinlashish esa, «konvergensiya» deyiladi.

Kontaktlashgan tillardan birida sodir bo‘luvchi yaqinlashish (konvergensiya) natijasida tillardan biri boshqasining tarkibiga singishib, o‘zining kommunikativ amalini susaytira borib yo‘qqa chiqarishi mumkin. Bu jarayon fan tilida *assimilyatsiya* deyiladi. Assimilyatsiya tufayli kontaktdagi tillardan biri boshqasining tarkibiga singishib «yutib yuborilishi» ham mumkin. O‘zaro kontaktdagi tillardan birining bunday sharoitni boshdan kechirishi konvergensiya tufayli yuz beradi. Tarixdan, ilmiy manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, qadimgi Xorazmda eron tillariga mansub lisonda so‘zlashuvchi etnik jamoa (xalq) bo‘lgan. Bu jamoa tili shu o‘lka nomi bilan «xorazmiy» tili deb atalgan. Hozir Xorazmda bu til yo‘q. U o‘zbek tili bilan kontaktlasha borib, lug‘aviy va grammatik qurilishidan bora-bora uzoqlashgan va o‘zbek tilining tarkibiga singishib ketgan assimilyatsiyalashgan. Bu haqda Aburayhon Beruniy asarlarida ham ma‘lumot berilgan.[1]

Konvergensiya, ya‘ni kontaktdagi tillardan birining boshqasi tarkibiga singishib, «assimilyatsiyalashuvi» slavyan tillarida ham uchraydi. Masalan, qadimda rus, belorus va ukrainlar orasida o‘z mustaqil lisoniga ega bo‘lgan muroma, chud, tork, qora klobuk singari mayda etnik guruhlar bo‘lgan. Shu xalqlar bilan bir hududda yashab, shular tilida muloqot qila borishi natijasida, ularning tillari rus, belorus va ukrain tillari tarkibiga singishib, assimilyatsiyalashib ketgan.[2]

Konvergensiya tufayli, yuqorida ham aytilganidek, ikki yoki undan ortiq qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillarga xos ayrim lisoniy xususiyatlar o‘zaro uyg‘unlashadi, ularning har biriga xos ayrim lisoniy xususiyatlar «so‘nib», neytrallashadi. Zero, konvergensiya atamasi lotin tilidagi «yaqinlashmoq», «o‘xshab ketmoq» ma‘nosidagi «convergo» so‘zidan olingan.

«Til kontakti**»** sotsiolingvistikaning asosiy tushunchasi sifatida tor va keng ma’nolardagi talqinga ega.

Til kontakti atamasi keng ma’noda uqilganda, muloqot vositasi vazifasini ikki mustaqil tildan tashqari, bir til doirasidagi ikki sheva ham bajaradi. Ya’ni so‘zlovchi-adresant va tinglovchi-adresatlar umumxalq tilining har xil shevasiga mansub shaxslar bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilining «j»lovchi shevasiga mansub shaxs bilan uning «y»lovchi shevasiga mansub shaxsning o‘zaro muloqotiga yo «j»lovchi sheva, yoki «y»lovchi sheva materiallari vosita vazifasini bajarishi mumkin. Muloqot «j»lovchi shevada amalga oshsa, «j»lovchi sheva kontakt sheva hisoblanadi; «y»lovchi shevada amalga oshsa, kontakt sheva vazifasi «y»lovchi sheva zimmasiga tushadi. Bundan tashqari, shaxsning adabiy til, yo shu adabiy tilga qarashli biror-bir sheva vositasidagi muloqoti ham keng ma’nodagi til kontaktiga misol bo‘ladi.

«Til kontakti» atamasi tor ma’noda qaralganda, muloqotning ikki har xil milliy til amalidagi shakli tushuniladi. Sotsiolingvistika uchun «til kontakti» tushunchasining tor ma’nodagi shakli ko‘proq ahamiyatli hisoblanadi. Chunki bu jarayonda shevalar emas, balki milliy tillar aloqaga kirishadi. Bir milliy til ikkinchi milliy tilga nimasi bilandir ta’sir qiladi. Bu jarayon fonetik, lug‘aviy va grammatik qurilishda farq qiluvchi biror-bir tilning lisoniy vositalari vositasida amalga oshadi. «Kontakt»ning bir til doirasidagi shevalararo amalga oshishida «ta’sirdoshlik» bir til doirasidagi lisoniy unsurlar bilan cheklanadi.

Til kontaktining turlari. Turli tillarning muloqot vositasiga aylanishi bilan bog‘liq xususiyatlar ham murakkab sosiolingvistik hodisalar hisoblanadi. Bu jarayonda bir til ikkinchi tilga (yoxud»kontaktlashayotgan» har ikki til o‘zaro) turli darajada ta’sir qiladi. Shu bois tillar kontakti tufayli turli xarakterdagi natijalar ko‘zga tashlanadi. Bu xususiyat asosida tillar kontaktining har xil tur va ko‘rinishlari belgilanadi.

Sotsiolingvistik xarakterdagi ilmiy manbalarda til kontaktining ikki asosiy turi qayd etiladi:

[1] Абурайҳон Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд. – Тошкент, 1968.
[2] Леонтьев А.А. Что такое язык. – М., 1976. – Б. 26.

1) proksimal til kontakti;

2) distal til kontakti.

1. Proksimal til kontakti. Til kontaktining proksimal shakli odatda etnik jihatdan farq qiluvchi har xil til jamoalarini uyushtirgan ko‘p millatli mamlakat yoki davlatlarda amal qiladi. Bunday mamlakat yoxud davlatlarda ikki tillilik (bilingvizm) yoxud ko‘p tillilik (polilingvizm) sharoiti hukm suradi. Proksimal til kontaktida fonetik, lug‘aviy va grammatik tizimi farq qiluvchi ikki yoki undan ortiq til vakillari o‘z ona tili bilan bir qatorda, qo‘shni boshqa etnik jamoaning tilini ham o‘zlashtirgan bo‘ladi. Muloqot shaxsning o‘z ona tili va o‘zga til vositasida amalga oshaveradi. Proksimal til kontaktiga Ozbekistondagi o‘zbek va tojik, tojik va o‘zbek, o‘zbek va rus, rus va o‘zbek, rus va qozoq, qozoq va rus shuningdek, shu xarakterdagi boshqa ikki tilliklarga asoslangan muloqot shakllari misol bo‘la oladi. Proksimal til kontakti tufayli bir tildan boshqa tilga lisoniy birliklar o‘zlashishidan tashqari, bir tilning ta’sirida boshqa tilning fonetik, grammatik qurilishida modifikasiyalashish holati sodir bo‘lishi, hatto sifat jihatdan farq qiluvchi yangi til tizimi vujudga kelishi mumkin.

2. Distal til kontakti. Til kontaktining distal shakli odatda o‘zaro hududdosh bo‘lmagan etnik jamoalarining tillari munosabatiga asoslanadi. Til kontaktining bu shakli turli etnik jamoa tillarining bevosita aloqada bo‘lmagan holatlarida amal qiladi. Shuning uchun distal til kontakti bir tillilik sharoiti uchun xos xususiyatdir. Bu jarayonda bir tildan boshqa tilga lisoniy birliklar (odatda so‘zlar) o‘zlashadi, xolos. Masalan, o‘zbek va arab, o‘zbek va xitoy, o‘zbek va mo‘g‘ul tillari munosabatida til kontaktining distal shakli amal qilgan. Chunki o‘zbek tili lug‘at tarkibida xitoy, mo‘g‘ul, arab tiliga xos lug‘aviy o‘zlashmalar uchraydi. Ayniqsa, arab lug‘aviy o‘zlashmalari o‘zbek tili leksikasida katta salmoqli qatlamni tashkil qiladi. Ularning qo‘pi hozirgi o‘zbek tilining o‘z lisoniy mulkiga aylangan.

Til kontaktining bu ikki turidan tashqari, uning zamon va makon umumiyligiga ko‘ra farqlanuvchi yana ikki turi ham mavjud. Ular:

a) bevosita til kontakti.

b) bilvosita til kontakti.

1. Bevosita til kontakti. Bevosita til kontakti xar xil til jamoasiga mansub shaxslarning yuzma-yuz muloqotiga asoslanadi. Yuzma-yuz muloqot jarayonida amalga oshgan muloqot makon va zamon umumiyligiga ega bo‘ladi: adresant va adresant yuzma-yuz muloqotda bo‘ladi. Bevosita til kontakti faqat nutqning og‘zaki shakliga asoslanadi.

2. Bilvosita til kontakti. Bilvosita til kontaktida har xil til jamoasiga mansub ikki shaxsning muloqoti yo telefon, yo internetga qo‘shilgan komryuter vositasida amalga oshadi. Bunda muloqotga kirishayotgan shaxslardan birining tili kontakt til vazifasini bajaradi. Muloqotga kirishayotgan shaxslar makon umumiyligiga ega bo‘lmaydi.

Bilvosita til kontakti ikki shaklda amalga oshadi:

a) og‘zaki;

b) yozma.

Bilvosita kontaktning og‘zaki shakli telefon yoki internet tarmog‘i orqali amalga oshadi. Yozma shakli esa, maktub, telegramma, telefaks, internetdagi «bildirish»(soobtshenie) vositalarida amalga oshadi. Yozma muloqotda adresant (yozuvchi) o‘z maqsadini batafsil bildirmoqchi bo‘lsa, maktubdan foydalanadi. Shunchaki xabar xarakterida bo‘lsa, u telegramma, faks yoki telefon vositasida amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda bilvosita muloqotning og‘zaki shakli faolroq bo‘lib, asosan mobil telefonlaridan keng ko‘lamda foydalaniladi. Bunda vosita til vazifasini muloqotga kirishayotgan shaxslardan biri mansub bo‘lgan til bajarishi mumkin.

Til kontakti lingvistika fanida turli tillarning o‘zaro ta’sirini o‘rganadigan muhim tushuncha hisoblanadi. Bu hodisa, asosan, jamiyatdagi ijtimoiy, tarixiy va madaniy aloqalar natijasida yuzaga keladi. Til kontaktlari ikki tillilik va ko‘p tillilik jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Bunday jarayonlarda tillar o‘rtasida leksik, fonetik va grammatik o‘zgarishlar kuzatiladi. Ayniqsa, qarindosh tillar o‘rtasidagi kontaktlar o‘zaro oson moslashuv va almashuvini ta’minlaydi. Noqarindosh tillar orasidagi aloqalarda esa yangi so‘zlar kirib kelishi va talaffuz o‘zgarishi ko‘proq uchraydi. Til kontaktlari natijasida so‘z boyligining kengayishi va madaniy muloqotning kuchayishi kuzatiladi. Shu bilan birga, ba’zi hollarda ona tilining milliy xususiyatlari zaiflashishi mumkin. Shuning uchun tilshunoslikda til kontaktlari ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bilan baholanadi. Ijobiy jihati – tilning rivojlanishi va yangi kommunikativ imkoniyatlarning yaratilishidir. Salbiy jihati esa – tilning o‘ziga xosligi va milliy ruhining ma’lum darajada yo‘qolishidir. Til kontaktlarini o‘rganish til taraqqiyoti qonuniyatlarini anglashda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiy manbalar ham tillar o‘zaro aloqasi har bir davrda jamiyat rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi. Bugungi globallashuv davrida til kontaktlari jarayoni yanada tezlashib, dolzarb ilmiy masalaga aylanmoqda. Demak, til kontaktlarini chuqur tadqiq etish tillarning boyishi, barqarorligi va kelajakdagi taraqqiyotini tushunishda beqiyos ahamiyatga egadir.

Rezyume. Ushbu maqolada til kontakti tasnifi, uning tarixi va o‘rganilishi, kontakt lingvistikaning alohida fan sifatida shakllanishi, til kontakti tufayli vujudga keluvchi sotsiolingvistik hodisalar, uning turlari shuningdek, sotsiolingvistikaning asosiy tushunchasi sifatida tor va keng ma’nolarda qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar beriladi.

Resume. This article provides information on the classification of language contact, its history and study, the formation of contact linguistics as a separate discipline, sociolinguistic phenomena arising from language contact, its types, as well as its use as a basic concept of sociolinguistics in narrow and broad senses.

Резюме. В статье представлена информация о классификации языкового контакта, его истории и изучении, становлении контактной лингвистики как отдельной дисциплины, социолингвистических явлениях, возникающих при языковом контакте, его типах, а также его использовании в качестве основного понятия социолингвистики в узком и широком смыслах.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«QUSH» SEMANTIK KOMPONENTLI IDIOMALAR TADQIQIGA DOIR KUZATISHLAR

Begmatova Gulchehra,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Idiomalar etimologiyasi, ya'ni ularning kelib chiqishi va rivojlanishi qiziqarli va ayni damda murakkab hodisadir. So'zlashuvda va internet matnlarida bu borada bir qator idiomalarning qo'llanilganligi mavzu bo'yicha ishlash zaruriyatini uyg'otdi. Qushlar nomi bilan bog'liq idiomalar, asosan, ma'lum bir xalqning tabiatga, qushlarga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Shu o'rinda hayvon semantik komponentli idiomalar tarkibiga «qush» semantik komponentli idiomalarni qo'shish zarurligi yuzaga keldi. Bu guruh kichik guruh bo'lsa-da, o'zbek va xorijiy tillarda mavjud idiomalarni qamrab oladi. Bu komponentli idiomalar safiga «Qora oqqush» idiomasini qo'shgan holda uning telegram ijtimoiy tarmog'ida («Postfaktum» kanalida) izohlangan, ingliz tlida «Qora oqqush» idiomasi mavjud bo'lib, u avvaliga imkonsiz hodisani ifodalash uchun ishlatilgan. Bunga sabab insonlar tabiatda qora oqqushlar mavjud emasligiga ishonishgan. Biroq, XVII asr oxirida Villem de Vlaming boshliq golland ekspeditsiyasi Avstraliyada qora oqqushlarga duch kelgach, idiomaning ushbu ma'nosi asta-sekin muomaladan chiqib, imkonsiz, ammo kashf etilishi mumkin bo'lgan hodisani ifodalay boshlaydi. XXI asrda ushbu idioma yozuvchi Nassim Nikolay Taleb muallifligida «Qora oqqush» asari orqali ommalashtirilgan, shu bilan birga muallaif butun insoniyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan, biroq ilmiy usullar bilan bashorat qilish qiyin bo'lgan voqealarni «qora oqqushlar» deb atagan, ya'ni Taleb Birinchi jahon urushi, Sobiq Ittifoqning parchalanishi, internet va shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi yoki 2001-yil 11-sentabrdagi terraktlarni qora oqqushlar qatoriga kiritgan[1]. Siyosatda va umuman nutqda «Qora oqqush» idiomasi mavjud bo'lib, u avvaliga imkonsiz hodisani ifodalash uchun ishlatilgan. Bunga sabab odamlar tabiatda qora oqqushlar mavjud emasligiga ishonishgan. Bu atama qadimgi Rim satirikining «*rara avis in terris, nigroque simillima cygno*» so'zining eng qadimgi iqtibosiga borib taqaladi, bu «qora oqqush yerdagi noyob qush» deb tarjima qilinadi va

[1] Нассим Николас Талееб. Черный лебедь. Под знаком непредсказуемости. Yana qarang: Nassim Nicholas Taleb. The Black Swan: The Impact of the Highly Improbable. Random House, 2007.